

# *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

## **COVID-19 pandemiyasi**

*Xasenova Maxim Ro'ziniyazovna*

*Respublika O'lat profilartika markazi Buhoro bo'limi*

**COVID-19 pandemiyasi** — SARS-CoV-2, ya'ni og'ir o'tkir nafas olish sindromi koronavirusi keltirib chiqaradigan COVID-19 koronavirus infeksiyasi kasalligi pandemiyasi.<sup>[2]</sup> Ilk marotaba 2019-yilning dekabrda Xitoyning Uxan shahrida qayd etilgan kasallik 2020-yilning 11-martida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan pandemiya deb belgilandi.<sup>[3]</sup> Koronavirus kelib chiqishini tekshirayotgan mutaxassisleri xastalikning laboratoriyadan chiqqani haqidagi taxmini rad etdi. Tadqiqot jarayoni uchun asos bo'lib xizmat qilgan ma'lumotlar esa xitoylik hamda xorijlik olimlarning birgalikdagi izlanishlari natijasida to'plangan. Yakuniy xulosalar e'lon qilinishining kechikishiga esa ekspertlar o'rtasidagi taxminiy kelishmovchiliklar sabab emasligi qayd etilgan<sup>[4]</sup>. 9-may 2022-yilga qadar virusni 192 dan oshiq mamlakat va hududda yashovchi 517 milliondan oshiq odam yuqtirdi; 6 250 000 dan oshiq odam kasallik tufayli halok bo'ldi, 472 milliondan oshiq odam esa tuzaldi.<sup>[5]</sup> Xitoy, Yevropa, Eron, Janubiy Koreya va AQShda pandemiya o'choqlari yuzaga keldi.<sup>[5]</sup>

Virus grippga o'xshash tarzda yo'talganda hamda aksa berganda chiqariladigan tomchilar orqali shaxsdan-shaxsga yuqadi.<sup>[6][7][8]</sup> Virus bemorda kasallik alomatlari yuzaga kelganda eng yuqumli bo'lsa-da, kasallik belgilari paydo bo'lishidan oldin ham boshqalarga yuqishi mumkin.<sup>[9]</sup> Kasallik alomatlari odatda besh kunda paydo bo'ladi, ammo bu davr 2 kundan 14 kungacha davom etishi mumkin.<sup>[8][10]</sup> Kasallikning asosiy alomatlari isitma, yo'tal va nafas qisishidir.<sup>[8][10]</sup> Kasallik bemorda pnevmoniya hamda o'tkir nafas olish distress-sindromi keltirib chiqarishi mumkin. Ayni damda COVID-19 ga qarshi vaksina yoki preparat yo'q. Kasallikni boshqarish simptomlarni davolash hamda yordam terapiyasidan iborat. Kasallik tarqalishi oldini olish uchun qo'llarni

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

yuvish, yoʻtalganda ogʻizni toʻsish, boshqalardan (ayniqsa, oʻzini yaxshi his qilmayotganlardan) uzoqroq masofada boʻlish tavsiya qilinadi. Virusni yuqtirganini taxmin qilayotgan shaxslarga 14 kun davomida oʻzlarini izolyatsiya qilish tavsiya qilinadi.<sup>[7][8][11]</sup>

Kasallik tarqalishi oldini olish maqsadida sayohat qilishni cheklash, karantin, komendantlik soati, tadbirlarni keyinga qoldirish va bekor qilish hamda muassasalarni yopish kabi choralar koʻrildi. Xususan, virus tarqala boshlagan Xubey provinsiyasi karantinga olindi, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Chexiya va Germaniyada mamlakat boʻylab karantin joriy qilindi,<sup>[12][13]</sup> Xitoy va Janubiy Koreyada komendantlik soati joriy qilindi,<sup>[14][15][16]</sup> turli mamlakatlarda chegaralar yoppasiga yopildi yoki sayyohlarga qarshi cheklovlar joriy qilindi,<sup>[17][18]</sup> aeroport va poyezd stansiyalarida nazorat choralari yoʻlga qoʻyildi,<sup>[19]</sup> virus keng tarqalayotgan hududlarda sayohat qilishga qarshi tavsiyalar eʼlon qilindi.<sup>[20][21][22]</sup> Kamida 115 davlatda universitet va maktablar yoppasiga yoki ayrim hududlarda yopildi, bu choralar 950 milliondan oshiq talaba faoliyatiga taʼsir koʻrsatdi.<sup>[23]</sup> Oʻzbekistonda virusni yuqtirish holati ilk marotaba 15-mart kuni qayd etildi.

Pandemiya global miqyosda qator ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi,<sup>[24]</sup> sport va madaniy tadbirlar keyinga qoldirilishi yoki bekor qilinishiga sababchi boʻldi,<sup>[25]</sup> dori-darmon, elektronika mollari hamda oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligi yuzaga kelishi haqida xavotirlarga sabab boʻldi.<sup>[26][27]</sup> Shuningdek, Internetda virus va pandemiya haqida notoʻgʻri maʼlumotlar hamda fitna nazariyalari urchidi,<sup>[28][29]</sup> turli mamlakatlarda ksenofobiya va irqchilik holatlari kuzatildi, vahimaga tushgan xaridorlar tualet qogʻozi kabi mollarni koʻp miqdorda sotib olishi kuzatildi.<sup>[30]</sup> 2021-yil iyul oyida JSST raisi Tedros Adhanom Ghebreyesus vaksinatsiyalar oqibatida koronavirusning vaksinalarga chidamli shtammi paydo boʻlishi mumkinligini aytdi<sup>[31]</sup>.

**Duration: 4 minutes and 13 seconds.4:13Subtitles available.CC**Koronavirus kasalligi haqida video lavha (skript)

**Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti rahbarining murojaati**

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

2021-yil aprel oyida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti rahbari Tedros Adhanom dunyo rahbarlarini zudlik bilan emlashni boshlamagan mamlakatlarga 10 million doza koronavirus vaktsinasini ajratishga chaqirdi.

„Koronavirusga qarshi vaktsinaga ega bo'lgan mamlakatlarga ushbu preparatga ehtiyoji bor davlatlar uchun 10 million doza vaktsina ajratishini so'rab murojaat qilganman. Ammo davlat rahbarlaridan hamon javob kutyapman“, — deya ta'kidlagan Tedros Adhanom.<sup>[32]</sup>

### **Vaksinatsiya**

Koronavirusga qarshi emlash boshlanganidan beri 2021-yil iyul oyi holatiga ko'ra dunyo bo'yicha 3 milliard 436 million doza vaktsina ishlatilgan<sup>[33]</sup>.

### **Tugatilishi**

Pandemiya JSST ma'lumotiga ko'ra 2023-yil 5-may kuni bekor qilindi<sup>[34]</sup>. COVID-19 pandemiyasi roppa-rosa 3 yil, 1 oy, 24 kun davom etdi. Mana shu vaqt oralig'ida koronavirus sabab dunyo bo'yicha 7 millionga yaqin inson halok bo'ldi, 765 milliondan ortiq kasallanish holatlari aniqlandi<sup>[35]</sup>. Bundan avval aprel oyi boshlarida Germaniyada COVID-19 pandemiyasi butunlay tugaganini ma'lum qilgan, hamda, 7-apreldan niqob taqishga oid barcha cheklovlar olib tashlangan<sup>[36]</sup>.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. ↑ [Jump up to:1,0 1,1 1,2 1,3 1,4](#) „COVID-19 boshqaruv paneli — Tizim fanlari hamda muhandislik markazi (inglizcha *Center for Systems Science and Engineering*, qisqartmasi CSSE) (Johns Hopkins universiteti)“. *ArcGIS*. Johns Hopkins universiteti.
2. ↑ „Coronavirus disease 2019“. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti
3. ↑ „WHO Director-General's opening remarks at the media briefing on COVID-19 – 11-mart 2020“. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (12-mart).
4. ↑ „ЖССТ коронавируснинг келиб чиқиши ҳақидаги тахминлардан бирини рад этди“. *Bugun.uz*. 2021-yil 7-avgustda asl nusxadan arxivlangan. (Wayback Machine saytida 2021-08-07 sanasida arxivlangan)

5. <sup>↑ Jump up to:5,0 5,1</sup> „Coronavirus Update (Live)—Worldometer“. *ncov2019.live*.
6. <sup>↑</sup> „Getting your workplace ready for COVID-19“. *Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti* (27-fevral 2020-yil).
7. <sup>↑ Jump up to:7,0 7,1</sup> „Q&A on coronaviruses“. *Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti* (11-fevral 2020-yil).
8. <sup>↑ Jump up to:8,0 8,1 8,2 8,3</sup> „Symptoms of Novel Coronavirus (2019-nCoV)“. *US Centers for Disease Control and Prevention* (10-fevral 2020-yil).
9. <sup>↑</sup> „Coronavirus Disease 2019 (COVID-19)“. *Centers for Disease Control and Prevention* (16-mart 2020-yil).
10. <sup>↑ Jump up to:10,0 10,1</sup> *Rothan, H. A.; Byrareddy, S. N. (February 2020). „The epidemiology and pathogenesis of coronavirus disease (COVID-19) outbreak“. *Journal of Autoimmunity*. 102433-*bet*. doi:10.1016/j.jaut.2020.102433. ISSN 0896-8411. PMID 32113704.*
11. <sup>↑</sup> „Coronavirus Disease 2019 (COVID-19)“. *US Centers for Disease Control and Prevention* (11-fevral 2020-yil).
12. <sup>↑</sup> „Coronavirus: Germany orders closure of non-essential shops and playgrounds“. *The Local*.
13. <sup>↑</sup> *Noemie, Bisserbe* „France's Macron Orders Nationwide Lockdown Over Coronavirus“. *The Wall Street Journal*.
14. <sup>↑</sup> „Coronavirus: Shanghai neighbour Zhejiang imposes draconian quarantine“. *South China Morning Post* (6-fevral 2020-yil). 6-fevral 2020-yilda asl nusxadan arxivlangan.
15. <sup>↑</sup> *Marsh, Sarah*. „Four cruise ship passengers test positive in UK – as it happened“. *The Guardian* (23-fevral 2020-yil). Qaraldi: 23-fevral 2020-yil.
16. <sup>↑</sup> „ja:新型肺炎流行の中国、7億8000万人に「移動制限」“ (ja). *CNN Japan*.
17. <sup>↑</sup> *Nikel, David* „Denmark Closes Border To All International Tourists For One Month“. *Forbes*.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

18.           ↑ „Coronavirus: Poland to close borders to foreigners, quarantine returnees“ (14-mart 2020-yil).
19.           ↑ „Coronavirus Update: Masks And Temperature Checks In Hong Kong“. *Nevada Public Radio*. 2020-yil 2-iyunda asl nusxadan arxivlangan.
20.           ↑ Deerwester, Jayme; Gilbertson, Dawn. „Coronavirus: US says 'do not travel' to Wuhan, China, as airlines issue waivers, add safeguards“. *USA Today*. 27-yanvar 2020-yilda asl nusxadan arxivlangan.
21.           ↑ „Coronavirus Live Updates: Europe Prepares for Pandemic as Illness Spreads From Italy“. *The New York Times* (26-fevral 2020-yil). Qaraldi: 26-fevral 2020-yil.
22.           ↑ Respublika O'lat profilartika markazi Buhoro bo'limi
23.           ↑ „Germaniyada Covid-19 pandemiyasi butunlay tugagani ma'lum qilindi“. *TRT.net.tr* (06.04.2023 ~ 15.04.2023).